

**TURKISTON MUXTORIYATINING TASHKIL TOPISHI, XALQ  
TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLANISHI VA BOLSHEVIKLAR  
TOMONIDAN ZO‘RAVONLIK BILAN TUGATILISHI  
(1917-1918-YILLAR TARIXIY TAHLILI)**

*Karamov Javohirbek O‘tkir o‘g‘li*

*Qarshi Xalqaro Universiteti ma’naviyat bo‘limi xodimi*

*Gmail: [javohirbekkaramov@gmail.com](mailto:javohirbekkaramov@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi, uning mahalliy aholi tomonidan keng qo‘llab-quvvatlangani hamda bolsheviklar tomonidan zo‘ravonlik yo‘li bilan tugatilishi jarayonlari tahlil etiladi. Tadqiqotda 1917-yil dekabr oyida o‘tkazilgan ommaviy miting va namoyishlar orqali muxtoriyat g‘oyasining xalq orasida katta ijtimoiy tayanchga ega bo‘lgani yoritilgan. Shuningdek, sovet hokimiyatining Turkiston Muxtoriyatiga nisbatan olib borgan dushmanona siyosati, qurolli to‘qnashuvlar va Qo‘qon voqealari misolida fojiali oqibatlar ochib berilgan. Muallif bolsheviklarning harbiy kuch ishlatishi natijasida milliy davlatchilikka intilgan muxtoriyatning qisqa muddat ichida tugatilganini asoslaydi. Maqolada Turkiston Muxtoriyatining tarixiy ahamiyati, uning milliy ozodlik harakatidagi o‘rni hamda sovet mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashning kuchayishiga turtki bo‘lgani ilmiy asosda yoritilgan.

**Annotatsiya:** В данной статье анализируются процессы формирования Туркестанской автономии, её широкая поддержка местным населением и насильственная ликвидация большевиками. В исследовании подчёркивается, что идея автономии получила широкую общественную поддержку среди населения благодаря массовым митингам и демонстрациям, прошедшим в декабре 1917 года. Также раскрывается враждебная политика советских властей по отношению к Туркестанской автономии, трагические последствия вооружённых конфликтов и Кокандские события. Автор обосновывает краткосрочную ликвидацию автономии, стремившейся к национальной государственности, применением большевиками военной силы. В статье научно освещается историческое значение Туркестанской автономии, её роль в национально-освободительном движении и импульс к интенсификации борьбы против советской колониальной политики.

**Abstract:** This article analyzes the processes of the formation of the Turkestan Autonomy, its widespread support by the local population, and its violent liquidation by the Bolsheviks. The study highlights the fact that the idea of autonomy gained great social support among the people through mass rallies and demonstrations held in December 1917. It also reveals the hostile policy of the Soviet authorities towards the

Turkestan Autonomy, the tragic consequences of armed conflicts and the Kokand events. The author justifies the short-term liquidation of the autonomy, which aspired to national statehood, as a result of the use of military force by the Bolsheviks. The article scientifically highlights the historical significance of the Turkestan Autonomy, its role in the national liberation movement, and the impetus for the intensification of the struggle against Soviet colonial policy.

**Kalit soʻzlar:** Turkiston Muxtoriyati, Bolsheviklar siyosati, sovet hokimiyati, Qoʻqon voqealari, milliy ozodlik harakati, 1917-1918-yillar, qurolli toʻqnashuvlar, sovet mustamlakachiligi, xalq namoyishlari, Xalq Komissarlari Soveti, Fargʻona fojealari, milliy davlatchilik, muxtoriyatning tugatilishi.

Shuni alohida taʼkidlab oʻtish lozimki, Turkiston Muxtoriyatini eʼlon qilinishi oʻlka xalqlarini ruhlantirib yubordi. Oʻlkaning millionlab fuqarolari muxtoriyatni qoʻllab – quvvatlab mitinglar, yigʻinlar uyushtirgan. Jumladan, 1917-yil 1-dekabrda Namangan uezdida 100 mingga qadar kishi ishtirokida namoyish boʻlib oʻtdi. 6 dekabrda Jalolobod volostiga qarashli Xonobod qishlogʻida muxtoriyat eʼlon etilishi munosabati bilan namoyish oʻtkazildi. Shu kuni Toshkent shahridagi Jomeʼ masjidida oʻtkazilgan mitingda jami 60 ming kishi qatnashgan edi. 7 dekabrda Qoʻqon shahrining 42 jamoat tashkilotlari nomidan yigʻilgan vakillarning koʻshma majlisi boʻlib oʻtdi. Unda qabul qilingan qarorda koʻp millionli Turkiston xalqiga tabriklar yoʻllandi. Samarqandda boʻlib oʻtgan viloyat Soveti sʼezdida yigʻilganlar Turkiston Muxtoriyatiga qoʻshilishga qaror qildilar va Xalq Majlisi tarkibiga 5 vakil sayladilar. Kaspiyorti viloyatida ham sʼezd chaqirilib, unda Turkiston Muxtoriyatiga qoʻshilish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi<sup>1</sup>.

Milliy matbuotda Turkistonning taniqli maʼrifatchilari, siyosiy va jamoat arboblari oʻz maqolalarida muxtoriyatni tabrikladilar. Ular orasida Mahmudxoʻja Behbudiy, Mirmuhsin Shermuhammad oʻgʻli, Abdulhamid Choʻlpon, Islom Shoahmedov, Munavvar Qori va boshqalar bor edi.

Turkiston xalqining muxtoriyat uchun olib borgan kurashida 1917-yil 13-dekabrda boʻlib oʻtgan fojeali voqealar muhim oʻrin tutadi. Muvaqqat Kengash 13 dekabrni “Turkiston Muxtoriyatining milliy jamgʻarmasiga pul yigʻish kuni” deb eʼlon qildi hamda bu mablagʻ mustaqillik va ozodlikni mustahkamlashga xizmat qilishini bildirdi. Ushbu kunda Toshkentning eski shahar aholisi “Muxtor Turkiston uchun” shiori ostida tinch bayram namoyishini oʻtkazdilar. Ammo, Toshkent sovetidagi bolsheviklar shaharda qurolli kuch bilan “tartib” oʻrnatishga buyruq beradilar. Oqibatda tinch namoyish qatnashchilari pulemyotdan oʻqqa tutildi, eski shaharlik 16 kishi ana shu toʻqnashuv qurboni boʻldi<sup>2</sup>. Bu muxtoriyatiga nisbatan uyushtirilgan

<sup>1</sup> Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchunchi kitob. –Toshkent:Sharq, 2016. –B. 98.

<sup>2</sup> Aʼzamxoʻjaev S. Turkiston muxtoriyati. –Toshkent: Fan, 1996. –B. 21.

dastlabki suiqasd edi.

Turkiston Muxtoriyatini himoya qilishda 25-dekabr kuni Qo‘qonda o‘z ishini boshlagan musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlarining I favqulodda qurultoyi (s‘ezdi) qabul qilgan qarorlarining ahamiyati katta bo‘ldi. Unda 200 ga yaqin vakil qatnashdi. Qurultoy muxtoriyatni har tomonlama quvvatlash, unga moddiy va ma‘naviy madad ko‘rsatish shiori ostida o‘tdi. Unda Turkiston Muvaqqat Kengashi tarkibiga musulmon ishchi, askar va dehqon deputatlari qurultoyi vakillarini kiritishga qaror qildi. Qurultoy o‘zining so‘nggi ish kuni – 27-dekabrda Petrograd Xalq Komissarlari Sovetiga telegramma yo‘lladi. Unda Turkiston muxtoriyatini e‘tirof etish, Toshkent Xalq Komissarlari Sovetiga hokimiyatni Turkiston Muxtoriyati Muvaqqat Kengashiga topshirish to‘g‘risida farmoyish berish so‘ralgan edi.

Butunrossiya musulmonlari Milliy Soveti ham muxtoriyatchilarning bu adolatli talablarini qo‘llab – quvvatladi. Lekin markaziy sovet hukumati millatlar ishlari bo‘yicha komissari I.V. Stalin 1918-yil 5-yanvarda bu talab xatiga yuborgan javobida: «Toshkentdagi Sovet komissariyatini yo‘q etish haqida Petrogradga murojaat qilishning ehtiyoji yo‘q, agar komissariatni istamasangiz, uni kuch bilan yo‘qota bilasiz», deb yozdi<sup>3</sup>. Stalin Turkiston Muxtoriyatining qo‘lida kuch yo‘kligini yaxshi bilardi.

Toshkentdagi sovet hukumati Turkiston Muxtoriyatini o‘zi uchun xavfli deb bildi va qanday bo‘lmasin uni yo‘qotishga kirishdi. Bu boradagi amaliy harakatlar sovetlarining IV s‘ezdida Turkiston Muxtoriyati masalasini muhokama qilish jarayonida yaqqol namoyon bo‘ldi. Ishchi va soldat deputatlari Sovetlari IV (favqulodda) o‘lka s‘ezdi 1918-yil 19 – 26-yanvar kunlari Toshkentda bo‘lib o‘tdi. S‘ezd boshlanishidan oldin ishchi va soldat deputatlari Sovetlar bilan dehqon deputatlari Sovetlarini qo‘shib yuborish masalasi muhokama qilingan edi. Lekin mandat komissiyasi ko‘plab dehqon deputatlari mandatlarini haqiqiy emas deb topishi natijasida ular s‘ezdni tark etadilar. Turkiston XKS ning raisi F.I. Kolesov s‘ezdning birinchi majlisida qilgan ma‘ruzasida Qo‘qonda tuzilgan “muxtoriyat hukumati”ni darhol tugatish va Sovet avtonomiyasini tuzish zaruratini taklif etadi. Se‘zd Turkiston Muxtoriyati hukumati va uning a‘zolarini qonundan tashqari holatda deb topdi va hukumat a‘zolarini qamoqqa olish to‘g‘risida qaror chiqardi.

1918-yil 30-yanvarda o‘lka XKS Turkiston Muxtoriyatini tugatish uchun harbiy harakatlarni boshladi. Toshkentdagi bolsheviklar buning uchun harbiy harakatlarga qizil askarlar otryadlaridan tashqari armanlarning «Dashnoqsutyun» (arman partiyasi hisoblanib, 1890 yilda tashkil topgan) partiyasi a‘zolaridan tuzilgan qurolli drujinalarini jalb etilishi natijasida vaziyat yanada murakkablashdi. Milliy matbuotning yozishicha, 31-yanvar (yangi hisob bilan 13-feval)da janglar boshlandi. Turkiston

<sup>3</sup> ShamsutdinovR. Turkiston Muxtoriyati-milliy davlatchiligimizning yorqin sahifasi. // Vodiynoma, 2017-yil №5 (7). – B.42.

o'lkasi XKS 1918-yil 14-fevralda (yangi hisob bilan) Farg'ona viloyatida harbiy holat e'lon qildi.

Dastlabki jangda muxtoriyatning milliy qo'shinidan tashqari qo'qonlik tinch aholi vakillari ham qatnashdi. Ularning soni 10.000 kishiga yetdi. Shunga qaramay, qurolsiz bu kishilar qizil askarlarning Qo'qon shahriga qilgan hujumini uch kun davomida mardonavor qaytardilar. Shu orada muxtoriyatchilar safida parokandalik yuz berdi. 18-fevralda «Ulamo» jamiyati tashabbusi bilan Muxtoriyatda to'ntarish yuz beradi. Mustafo Cho'qayev boshchiligidagi hukumat mahkamasi ag'dariladi. Ayrim vazirlar (H. Agaev va b.) jangda halok bo'ldi. Bolsheviklar tomonidan Nosirxon To'ra Namanganda, O. Mahmudov Buxoroda, S. Gersfeld Samarqandda, keyinchalik U. Asadullaxo'jaev, I. Shoahmedovlar ham qo'lga olindi<sup>4</sup>.

Qo'qon shahri qo'rboshi mirshablari (militsiya) boshlig'i Kichik Ergash 18-fevraldan boshlab amalda Turkiston Muxtoriyati hukumatining rahbariga aylandi. 19-fevralga o'tar kechasi Toshkentdan Turkiston o'lkasi harbiy komissari Ye. Perfilev boshchiligidagi piyoda, otliq va artilleriya qismlaridan iborat 11 eshelon qo'shin yetib keldi. 19-fevraldan boshlab 3 kun davomida qizil askarlar shahar ustiga to'plardan yondiruvchi snaryadlar otgan. Shahar butunlay vayron qilinadi. Qo'qonning o'zida 3 kun davomida 10 mingdan ziyod kishi o'ldirildi<sup>5</sup>. Muxtoriyat qo'shinining tirik qolgan qismi Kichik Ergash boshchiligida (200 – 300 yigit) Qo'qon yaqinidagi Bachqir qishlog'iga chekindi va mudofaa istehkomlarini qurib, dushman hujumini qaytardi. Qizil gvardiyachilar Qo'qon va uning atroflaridagi tinch aholini talash va o'ldirishni avj oldirishdi. Sovet rejimi Turkiston Muxtoriyati hukumatini 19-fevralda kurol kuchi bilan ag'darib tashladi<sup>6</sup>.

1918-yil 22-fevralda Qo'qon shahridagi Rus – Osiyo banki binosida bolsheviklar tomonidan tayyorlangan «tinchlik shartnomasi» imzolandi. Shartnomaning birinchi moddasida: «Aholi Xalq komissarlari sovetining hokimiyati va mahalliy sovet muassasalarini tan oladi», deyilgan edi. Shu bilan Turkiston mintaqasidagi dastlabki demokratik hukumat – Turkiston Muxtoriyati tugatiladi<sup>7</sup>. U atigi 72 kun faoliyat ko'rsatgan bo'lishiga qaramasdan o'zbek xalqining milliy mustaqillik va istiqloq yo'lida amalga oshirgan muhim qadamlaridan biri sifatida O'zbekiston tarixining unutilmas saxifalaridan o'rin oldi. Bu hukumatning ag'darilishi turkistonliklar tomonidan sovet Rossiyasining Turkistonga nisbatan tajovuzkor rejalari mavjudligining yana bir dalili sifatida qabul qilindi. Turkistonliklar tinch yo'l bilan milliy davlatchilikni qayta tiklash mumkin emasligini tushunib, 1918-yil fevrel oyining

<sup>4</sup> Sirojiddin Ahmad Ubaydulla Xo'jaev (Turkistonda demokratik davlat qurish uchun kurashgan birinchi o'zbek advokati Shamsutdinov R. Turkiston Muxtoriyati-milliy davlatchiligimizning yorqin sahifasi. // Vodiynoma, 2017-yil №5 (7). – B.42. Ubaydulla Xo'jaev hayoti va faoliyati). Toshkent: INFO GAPITAL GROUP, 2021. –B. 129.

<sup>5</sup> Shamsutdinov R. Turkiston Muxtoriyati-milliy davlatchiligimizning yorqin sahifasi. // Vodiynoma, 2017 yil №5 (7). – B.42.

<sup>6</sup> Turkestan a nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. –Toshkent: Shark, 2000. –S. 141.

<sup>7</sup> Shamsutdinov R., Xoshimov S. Alash Muxtoriyati. // Vodiynoma, 2017-yil №5 (7). –B.93-95.

oxirida qo‘llariga qurol olgan holatda Turkistonda sovet rejimi va bolsheviklarga qarshi qurolli harakatni boshlab yubordilar. Sovet tuzumi davrida Turkiston Muxtoriyatining mohiyati soxtalashtirilib, u tor ma’nodagi Qo‘qon muxtoriyati bilan almashtirildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarihai. Uchunchi kitob. – Toshkent:Sharq, 2016. –B. 98.
2. A’zamxo‘jaev S. Turkiston muxtoriyati. –Toshkent: Fan, 1996. –B. 21.
3. ShamsutdinovR. Turkiston Muxtoriyati-milliy davlatchiligimizning yorqin sahifasi. // Vodiynoma, 2017-yil №5 (7). –B.42.
4. Sirojiddin Ahmad Ubaydulla Xo‘jaev (Turkistonda demokratik davlat qurish uchun kurashgan birinchi o‘zbek advokati ShamsutdinovR. Turkiston Muxtoriyati-milliy davlatchiligimizning yorqin sahifasi. // Vodiynoma, 2017-yil №5 (7). – B.42.Ubaydulla Xo‘jaev hayoti va faoliyati). Toshkent: INFO GAPITAL GROUP, 2021. –B. 129.
5. Turkestan a nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. – Toshkent: Shark, 2000. –S. 141.
6. Shamsutdinov R., Xoshimov S. Alash Muxtoriyati. // Vodiynoma, 2017-yil №5 (7). –B.93-95.